

# Journal of New Century Innovations

VOLUME  
**46**  
ISSUE-4



Journal of new century innovations

**Exact and natural sciences**



**Pedagogical sciences**

**Social sciences and humanities**

**Engineering and Medical Sciences**

**ISSN (p): 2181-3671**  
**ISSN (e): 2181-368X**



Google Scholar



[newjournal.org](http://newjournal.org)



**JOURNAL OF NEW CENTURY  
INNOVATIONS**

**VOLUME - 46 | ISSUE - 4**

**February - 2024**



O‘ZBEKISTONDAGI ZIYORAT TURIZMIDA  
DINIY FENOMENNING AHAMIYATI

*Xotamxonov Muhammadjon Murodjon o‘g‘li*  
*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi*  
*Qiyosiy dinshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada avvalambor, ziyoratgoh atamasi haqida qisqacha tushuncha, uning rivojlanishi tarixi, ziyorat turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar va yaratilayotgan imkoniyatlar haqida ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Shuningdek, yurtimizda ushbu sohaga qaratilgan e‘tibor, yaratilgan shart-sharoitlar haqida keng yoritilib o‘tilgan. Bundan tashqari, ziyoratgohlar bilan bog‘liq diniy fenomenologik jarayonlarga to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar.** turizm, ziyorat, ziyoratgoh, din, strategiya, turistlar, fenomen, tarixiy obidalar, turistik shaharlar.

**Ziyorat turizm** – sayohat, sayyohlik, sayohat qilish, faol ilmiy-estetik ko‘nikmalarni egallash turlaridan biri. Ziyorat turizmi deganda esa jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan, ma‘rifiy, kasbiy, amaliy borilgan joyda haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan 1 oy muddatga jo‘nab ketish tushuniladi. Ko‘pgina mamlakatlarda ziyorat turizmi davlat iqtisodiyotining rivojlangan sohasi hisoblanadi. Chunki turli mamlakatlarga sayohat qilishni istamaydigan inson bo‘lmasa kerak.

Dunyoda turizmning 200 dan ortiq turlari bo‘lib, ular orasida ziyorat turizmi tez rivojlanayotgan, istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ilgari tarixiy, madaniy turizm bilan cheklanib qolingan bo‘lsa, oxirgi besh yilda safari (cho‘l), etnografik, gastronomik yangi yo‘nalishlar qatorida ziyorat turizmiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Chunki O‘zbekiston bu borada yuqori salohiyatga ega bo‘lib, imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmayotgani ayni haqiqat. Islom sivilizatsiyasi beshigi, ma‘rifat va madaniyat markazi sifatida tanilgan yurtimizda dinimiz rivoji, jahon ilmu fani taraqqiyotiga hissa qo‘shgan allomalar, mutafakkir olimlar, ulamolar va ulug‘ avliyolar yetishib chiqqan. Dunyoda ularning ziyoratgoh va muborak qadamjolarini ziyorat qilishga ehtiyoj yuqori. Ayni shu maqsadda, ya‘ni o‘zga madaniyatlar bilan yaqindan tashishish, boshqa hudud tarixi, muqaddas ziyoratgohlari haqida tarixiy bilimlarga ega bo‘lish, muborak manzillarni ziyorat qilishga qaratilgan ziyorat turizmi shakllandi.

Ziyorat turizmi yo‘nalishida to‘g‘ri targ‘ibotni yo‘lga qo‘yish va ziyorat ob‘ektlari haqida ilmiy asoslangan ma‘lumotlarni taqdim etish maqsadida 2021 yil 24 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 100-sonli Qarori qabul

qilinib, ushbu qarorga muvofiq Ziyorat turizmini rivojlantirishni muvofiqlashtirish kengashi tashkil etildi. Muvofiqlashtirish kengashining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- ✓ O‘zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini to‘liq o‘rganish, ma’lumotlarni tizimlashtirish, ziyoratgohlar, ulamolar va ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlarni shakllantirish;
- ✓ turizmi bozorida real ehtiyojni markazlashgan tarzda tahlil qilish;
- ✓ targ‘ibot ishlarini sifatli va puxta tashkil qilish;
- ✓ media kontent, audiovizual mahsulotlar, maqola va broshyuralar uchun ilmiy asoslangan materiallarni ko‘rib chiqish va ma’qullash;
- ✓ moddiy madaniy meros ob‘ektlaridagi axborot tablolari, gidlar va ekskursiya etakchilarining ekskursiya materiallari uchun sifatli materiallar shakllantirilishini muvofiqlashtirish;
- ✓ turli konfessiyalarning moddiy madaniy meros ob‘ektlari uchun ziyorat odobi bo‘yicha tavsiyalar tayyorlanishini tashkil qilish.

Mamlakatimizdagi mavjud ziyorat turizmi salohiyatidan yanada unumli foydalanish, O‘zbekiston zaminini dunyo sivilizatsiyasining muhim makazlaridan biri sifatida namoyon qilish, jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlarning yuqori e’tiroflariga sazovor bo‘lish, shuningdek, ziyorat turizmi xizmatlarini diversifikatsiya qilish va turizm eksportini oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2022 yil 20 mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi”ni tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 282-sonli Qarori qabul qilindi. O‘zbekiston bugun dunyoga yangi imkoniyatlarni ochayotgan, barqaror rivojlanayotgan, ziyorat va sayohat uchun xavfsiz mamlakat sifatida yanada kengroq tanilmoqda. Prezidentimiz tomonidan “Tabarruk ziyorat” turizm konsepsiyasining tasdiqlanishi, yaqinda bo‘lib o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammitida O‘zbekiston a’zo davlatlarda 2023 yilni turizmni rivojlantirish yili deb e’lon qilishi uning xalqaro ahamiyatini yaqqolroq namoyon etdi. Albatta amalga oshirilayotgan islohotlar xorijliklarning yurtimizga tashrifi uchun muhim omil hisoblanadi.

**Xulosa.** Har bir davlatning rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, albatta turizm bilan bog‘liq bo‘ladi. Har bir davlat o‘z yurtini butun dunyoga tanitish uchun ham o‘zining turizm sohasini yetarli ehtiyojlar bilan ta’minlaydi.

Biz bu maqolani to‘liq yoritib berish jarayonida turizmning qadimgi davrlardan buyon to hozirgacha rivojlanib kelayotganiga amin bo‘ldik. Shunday ekan, biz qanday sohaga qiziqishimizdan qat’iy nazar turizm sohasi bilan o‘zimizning hayotiy faoliyatimizni bog‘lashimiz zarur. Oxirgi 3-4 yildan buyon turizm sohasiga



qaratilayotgan e'tibor juda ham katta. Bu sohaga kirib kelgan inson hech qachon uni tark eta olmaydi. O'z rivoji uchun sarmoya kiritgan har bir davlat kelgusi yillarda rivojlangan davlatlar orasida eng yuqori darajani egallaydi.

Biz ham o'z ajdodlarimizdan qolgan merosni butun dunyoga tanitishimiz lozim. Bugungi kunda hukumat tomonidan turizm sohasini modernizatsiya qilish, davlatda transport va mehmonxona infrastrukturasi yaxshilash, hamda turizmda normativ huquqiy bazani mukammallashtirish sohalarida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ILOVALAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 fevraldagi "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 100-sonli Qarori.
3. Erkayeva Barno Abdurahimovna "O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari".
4. Ro'ziyev Sh. "O'zbekistonda tarixiy- madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi".

#### **Internet saytlari**

1. <https://lex.uz/acts/-65108>

УДК 547.785.51

NEFT TAYYORLASH MASKANI QURILMALARIDA XAVFSIZ  
ISHLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Jakbarov Dilshodbek Voxobjon o'g'li*

*Namangan davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi*

*E-mail: [dilik6109@gmail.com](mailto:dilik6109@gmail.com) [Telefon: \(97\)206-71-01](tel:(97)206-71-01)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada neft tayyorlash maskani texnologik qurilmalari va ularning xavfsiz ishlash usullari yoritiladi. Shuningdek, neft tayyorlash maskani texnologik qurilmalarida xavfsiz ishlash usullarini takomillashtirish tizimi o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Neft tayyorlash maskani, texnologik qurilmalar, mahsulot, samaradorlik, xavfsiz ishlash usullari, texnologiyalar.

Respublikamizda neft va gaz qazib olish samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'llarini qidirish, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash, konlarni ishlatishning samarali yo'llarini joriy etish, qatlam bosimini saqlash, qoldiq neft mahsulotlarini qazib olishning arzon texnologiyalarini qo'llash kabilar orqali xalq xo'jaligi uchun ko'proq miqdordagi mahsulot yetkazib berish bugungi kunda mutaxassislarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Neft tayyorlash maskani texnologik qurilmalariga kiruvchi jihozlarning nomenklaturasi yuzlab nomlarni tashkil qiladi, neft gaz sanoatini yuqori ko'rsatkichda o'sib borayotganligi ularning tezkor yangilanishiga, mukammal yangi turlarni va konstruksiyalarini yaratishga to'g'ri kelmoqda. Texnik vositalarni ko'p shaklli ekanligi, ularning bir tizimga keltirish hamda o'rganish kerakligini talab qildi. Mashinalar, jihozlar, mexanizmlar, inshootlar, mexanizatsiyalash vositalari va hamma asboblarni sakkizta guruhga va bir nechta guruhchalarga ajratib o'rganiladi.[1]

1-guruh. Quduqlardan suyuqlik va gazni qazib chiqarish uchun kerakli jihozlarning tasnifi normal ishlarni amalga oshirishga moslashtirilgan bo'ladi, mahsuldor qatlamni yer usti qismi bilan tutashtiruvchi kanal hisoblanadi. Bu guruhdagi jihozlarning ishonchliligi va samaradorligi quduq ishining ishonchligini to'liq aniqlaydi.

2-guruh. Quduqlardan foydalanish jihozlari qatlamdan qazib olinadigan suyuqliklarni yoki gazni ko'tarishga mo'ljallangan. Birinchi qismdagi jihozlar quduq ichiga tushiriladi va ko'taruvchi hisoblanadi, qolgan qismi esa quduq usti zonasida montaj qilinadi. Boshqa sharoitlarda quduqlarga suyuqlik yoki gazni haydashda qo'llaniladi, haydovchi jihozlar deb ataladi.

3-guruh. Yer osti ta'mirida, o'zlashtirishda va ishlov berishda qo'llaniladigan jihozlar quduqni ishlatishning butun davri davomida qo'llaniladi, ishlatish jihozlari

orqali quduqqa tushiriladi. Birinchi holatda yer osti ta'miri kapital ta'mirlash, ikkinchidan esa - quduqni joriy ta'mirlash deyiladi. Bundan tashqari shu guruhdagi jihozlar orqali quduq kapital ta'mirdan keyin ba'zida esa burg'ilangandan so'ng o'zlashtiriladi. Bu guruhdagi jihozlardan quduqlami favvora, gazlift yoki nasos ko'targichlar yordamida jihozlashda ham foydaniladi.[3;160]

4-guruh. Neft va gaz qazib olishni jadallashtirishda va qatlamlarni neft beruvchanligini kuchaytirishda qo'llaniladigan jihozlar va inshootlar. Bu jihozlarning keng qo'llanilishi natijasida konlarni ishlatish muddati qisqartiriladi hamda qoldiq neft va gazni olish miqdori oshiriladi.

5-guruh. Quduq mahsulotlarini yig'ish jihozlari va inshootlari, neft, gaz, suvni va aralashmalarni ajratish, neft, gaz, gaz kodensatlarni o'lchash va dastlabki tayyorlashda qo'llaniladi. Bu guruhdagi jihozlar yer ustida, asosan konning territoriyasida joylashtiriladi.

6-guruh. Dengizda neft, gaz va gaz konlarini ishlatishda qo'llaniladigan jihozlar, juda murakkabligi, ko'p namcnklaturasi, katta o'lchamlari va yuqori darajada takomillashtirilganligi bilan farq qiladi. Ular alohida sodda vositalardan murakkab bo'lgan katta guruhdagi jamlanmalarga aylantiriladi va mustaqil tarmoqni shakllantiradi.

7-guruh. Ta'mirlash-mexanik xizmat ko'rsatish jihozlari parkdagi mashinalarning ish qobiliyati holatini saqlab turishda qo'llaniladi. Bu jihozlarga ko'p nomli mashinalar, jihozlar, inshootlar, mexanizatsiyalashtirish vositalari va asboblari, kon xo'jaligi hamda transport xizmati jihozlari kiradi.

8- guruh. Energetika xizmati jihozlari. Shuning uchun, bunday ob'ektlarni neftli yoki gazli kondensatlar deb atash qabul qilingan bo'lib, birlik tizim sifatida qaraladi. Muhim masalalardan biri bir yoki guruhli konlarning samarali ishlarini kompleks ishlatish uchun muhandislik vositalarini va ob'ektlarini ishlash hamda ulardan foydalanishni birbiriga moslashtirish uchun texnik va ma'muriy boshqaruv bilan ta'minlanadi, konning hamma xodimlari avtomatlashtirish vositalariga va boshqaruvga, ko'pincha AVB (avtomatik vositalarni boshqarish)ga jalb qilinadi. Bu tizim mashina va jihozlardan tashqari zamonaviy o'lchov asboblari, rostlash, avtomatlashtirish va hisoblash texnikalari bilan ham ta'minlangan.

7- guruh va 8- guruhdagi jihozlar o'zining tarkibiga muvofiq umumiy sanoat uchun mo'ljallangan mashinalar deyiladi, qolgan oltita guruhdagi jihozlar asosiy jihozlar hisoblanadi.

Neft konlarini har xil geologik sharoitlarda joylashganligi va ishlatish usullari hamda konlarni joylashuvini spetsifikasi, quduqlarni joylashtirish oraliqlarini oshirishga yo'naltirish va ularning mutlaq sonini kamaytirish holati ikki, ba'zida uchta va undan ham ko'p qatlamlarni bir quduq orqali ishlatishga olib keldi. Bunday usul bir vaqtda alohida ishlatish deyiladi. Bir vaqtning o'zida bir quduq orqali bir nechta

qatlamlarni ishlatish neft konlarida har bir qatlamlarni ishlatishda texnik va texnologik jihozlardan foydalanishni taqozo qiladi.[5;145]

Bunday jihozlarga qo'yiladigan asosiy talablarga har bir qatlamni alohida o'ziga mos bo'lgan ishlatish rejimi bilan ta'minlash holatini boshqa qatlamlarni ishlatish rejimi bilan bog'liq boimasligi kerak. Qatlamlardan suyuqlikni qazib olish jihozlarini guruhiga har bir qatlamga suv haydab qatlam bosimini saqlab turish masalasini hal qilish ham kiradi. Bunday texnologiyada bir vaqtda qatlamlarni alohida ishlatish jihozlariga qo'yilgan talablarni quyidagicha shakllantirish mumkin. 1-ishlatish davrining hamma bosqichlarida qatlamlarni ishonchli ishlatish; 2-kerakli texnologik operatsiyalarni har bir qatlamda alohida olib borish mumkinligi (o'zlashtirish, qatlamni tadqiqot qilish, parafinni chiqarib yuborish, yuvish va h.k.); 3-har bir qatlamdan olinadigan suyuqlikni boshqarish va har biriga suv haydashni mumkinligi; 4-konstruksiyasi; 5-metall sarfning minimalligi; 6-foydalanishdagi ishonchlilik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Анализ состояния разработки нефтегазоконденсатного месторождения Крук и выдача рекомендаций по стабилизации добычи нефти: Отчет о НИР / ОАО "УЗЛИТИНЕФТГАЗ"; Ответственный исполнитель Шахназаров Г. А. - Тошкент ; 2009.

2. Антонова Э.О., Крилов Г.В., Прохоров А.Д., Степанов О.А. "Основы нефтегазового дела", Учебник для вузов, Москва, ООО "НедраБизнесцентр"- 2003. 307 стр.

3. Земенков Ю.Д, Маркова Л.М, Прохоров А.Д, Дудин С.М. "Сбор и подготовка нефти и газа", Учебник для вузов, Москва, Издательский центр "Академия"- 2009. 160 стр.

4. Ибрагимов И.Т., Мищенко И.Т., Челоянс Д.К. Интенсификация добычи нефти. Москва, «Наука» - 2000. 230 стр.

5. Ишмурзин А.А., Храмов Р.А. «Процессы и оборудование системы сбора и подготовки нефти, газа и воды», Учебное пособие, Уфа ,Изд-во., УГТНУ -2003. 145стр.



NEFT TAYYORLASH MASKANIDA TEXNOGEN AVARIYANI  
OLDINI OLISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Mo'ydinov Eldorbek Qo'shaqboyevich*

*Namangan davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi*  
*E-mail: dilik6109@gmail.com* [Telefon: \(97\)206-71-01](tel:972067101)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada neft tayyorlash maskanida texnogen avariya va uning oldini olish usullari yoritiladi. Shuningdek, neft tayyorlash maskanida texnogen avariyaning oldini olish usullarini takomillashtirish tizimi o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** Qatlam bosimini saqlash, texnologik qurilmalar, mahsulot, samaradorlik, xavfsiz ishlash usullari, texnologiyalar, texnogen avariya.

Respublikamizda aholi va hududni texnogen FVlardan muhofaza qilish uchun bir qator ishlar qilinmoqda. Shu jumladan, 1995 yil 20 avgustda «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonun qabul kilinganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Bundan tashqari Respublikamiz miqyosida o'tkazilayotgan «Yong'in xavfsizligi oyligi», «Yo'l harakati xavfsizligi oyligi» kabi tadbirlar ham texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi va hududlar xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyat yuz berganda harakatlanishga oid tayyorgarlik darajalarini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Ishlab chiqazish sohasida faoliyat yuritayotgan har bir ishchi halokatlar yuz berganda harakatlanish qoidalarini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Misol uchun, elektr energiyasini tarmoqdan uzishning ham o'ziga xos talablari, gaz, bug' apparatlarini o'chirishning ham o'ziga xos qonun qoidalari mavjud bo'lib, agar texnologik jarayonlar va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinmasa, inson hayotiga juda katta xavf solishi yoki juda katta moddiy talofatlar keltirishi mumkin.

Har bir ishlab chiqazish sohasi xodimi halokatlar yuz berganda jamoa muhofaza inshootlari joylashgan yerlarni, xavfsizlik joylarga chiqish yo'llarini, yakka himoyalash vositalari bilan ta'minlashni tashkil etishni va ulardan foydalanish tartibini bilishi lozim. Texnologik uskunalarni germetizatsiyalash va ishlash tizimini doimiy nazorat qilish, shu bilan yong'in va portlash xavflarini oldini olish zarur. Elektr asboblarning holatini, sig'imi, qism va tarmoqlarini, bosim ostida ishlashini, nazorat o'lchov asboblari, himoyalash va bloklash apparatlarining ish faoliyatini doimiy nazorat qilish hamda aniqlash kerak.

Har bir tashkilotda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan halokatlarning bartaraf etish rejasi ishlab chiqiladi. Ishchi va xizmatchilarning halokat yuzaga kelgan vaziyatlarda o'zini tutish va harakatlanishga tayyorlash tadbirlari tashkil etiladi, ularni bartaraf etish kuch va vositalarining zaruriy zahiralari ko'rib chiqiladi. FV yuzaga kelganda ogohlantirish tizimi va vositalari doimiy shay holatda saqlash, ishchi o'rinlari uchun kerakli shaxsiy himoyalash vositalari sonini ta'minlash zarur.

Halokatlar sodir bo'lganda muhim vazifalardan biri ishlab chiqarish korxonasi va aholi yashash punktlariga xavf haqidagi xabarni etkazish hisoblanadi. Shuningdek, ob'ektning har bir ishchi, xodimi halokat sodir bo'lganda ogohlantirish vositalaridan

foydalanish va tegishli tashkilotlarga xabar berishni bilishi zarur.

Neft tayyorlash tayyorlash maskanida texnogen avariyaning oldini olish uchun quyidagi xavfsizlik qoidalariga amal qilish shart:

Sig'im-idishlarni ishlatish, suyultirilgan neftli gazlarni saqlash va tashishda xavfsizlik qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi shart.

T-15°C dan undan yuqori xolatdagi maxsulotlar bilan sig'im-idishni to'ldirishning maksimal kattaligi 83% dan oshmasligi shart. Maxsulotlarning T-15°C dan past bo'lgan xaroratida, maksimal to'ldirish kattaligi quyidagi xisob kitobda belgilanadi: propan uchun - 425 kg/m<sup>3</sup>, butan uchun - 486 kg/m<sup>3</sup>.

Erkin otilab tushuvchi xolatda maxsulotlarni kuyish man qilinadi. Ta'mirdan so'ng, birinchi to'ldirilishda yoki apparatni ochgan xolda ko'rikdan o'tkazishda, portlashxavfli aralashmalar hosil bo'lishini oldini oluvchi choralar ko'rish zarur (oldindan but bilan, tabiiy yoki inert gaz bilan dam beriladi).

Satxni o'lchash uchun, o'zi egiluvchi jumraklari bo'lgan o'lchovchi oynalarni o'rnatishga ruxsat etiladi.

Oynada, chegaralangan satx belgisi bo'lishi shart. Haydab olinadigan maxsulot xarorati, bug'lar tarangligi sig'im-idish (ishchi) uchun ruxsat etilgan bosimdan oshadigan xaroratdan yuqori bo'lmasligi shart.

Namuna olish, maxsulotlarning maksimal bosimga namuna olgichlarda amalga shiriladi xisob-kitob sig'im-idishda qilingan. Sig'im-idishdan suvlarni tashlash shtutseri, muzlamaydigan klapan bilan jixozlangan bo'lishi shart. Sig'im-idishlarda mahsulotlarni 45 °S dan yuqori xolatda qizdirish mumkin bo'lgan joylarda, sig'im-idishni qizib ketishini oldini olish uchun choralar ko'rilgan bo'lishi shart.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Акромов Б.Ш., Умедов Ш.Х. “Нефт казиб олиш буйича маълумотнома” Тошкент ; “Фан ва технология”, 2010-368 б.
2. Акромов Б.Ш., Сидикхужаев Р.К. “Нефт ва газ иши асослари”, Тошкент; ТДТУ, 2003. 203 б.
3. Акромов Б.Ш., Хаитов О.Г. Нефт ва газ махсулотларини йиғиш ва тайёрлаш. Дарслик. - Т.: “Илм-Зиё”, 2003.
4. Анализ состояния разработки нефтегазоконденсатного месторождения Крук и выдача рекомендаций по стабилизации добычи нефти: Отчет о НИР / ОАО “УЗЛИТИНЕФТГАЗ”; Ответственный исполнитель Шахназаров Г. А. - Тошкент ; 2009.
5. Антонова Э.О., Крилов Г.В., Прохоров А.Д., Степанов О.А. “Основы нефтегазового дела”, Учебник для вузов, Москва, ООО “НедраБизнесцентр”- 2003. 307 стр.

**MINTAQA TURIZM SALOHIYATINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH  
YO'NALISHLARI (BUXORO HUDUDI MISOLIDA)**

*Maxsumova O'g'iloy Dilmurodovna*

*Turizm (Ziyorat turizmini boshqarish va tashkil etish) yo'nalishi*

*O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi*

[d34966774@gmail.com](mailto:d34966774@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bu maqolada turizm sohasining baholash va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari muhokama qilinadi. Maqolada turizm salohiyatini tahlil qilishning o'zgaruvchan yo'nalishlari belgilanadi, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ma'muriy, texnologik va ilmiy yo'nalishlar. Maqola turizm sohasidagi muhim yo'nalishlarni ta'kidlaydi hamda turizm salohiyatini baholash va rivojlantirish uchun asosiy yo'nalishlarni aniqlashda yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Turizm, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ma'muriy, texnologik, ilmiy, barqaror turizm, meros.

Turizm salohiyatini baholash va rivojlantirish yo'nalishlari, bir mamlakat yoki hududning turizm sifatini, shu sohada potentsialni oshirish va mavqelarni kuchaytirishda muhimdir. Quyidagi yo'nalishlar turizmni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardir:

*Infrastruktur taraqqiyoti:* Turizm salohiyatini rivojlantirish uchun shaharlar, kasabalar va turizm zonalarida kerakli infrastruktur taraqqiy etishi kerak. Bu avtomobil yo'llari, aeroportlar, transport tizimlari, mehmonxonalarni o'rnatish, suv-resurslar va boshqa muhim vositalardan iborat.

*Turizm manzaralari va joylarini rivojlantirish:* Turistlarni jalb qilish uchun mamlakatda qadimgi qadriyatlar, tabiiy go'zalliklar, ob-havo sharoitlari, bozorlar, restoranlar, temir yulduzlari, qishloqlar va boshqa joylar rivojlantirilishi lozimdir.

*Reklama va marketing:* Turizm sifatini rivojlantirish uchun kuchli reklama va marketing strategiyalari muhimdir. Bu, mamlakatning, hududning yoki shaharning turistik imkoniyatlarini dunyo bo'ylab taqdim etish, tadbirlar, festival va ko'rgazmalar o'tkazish orqali turistlar va sayohatchilarni jalb qilishga yordam beradi.

*Qabul va xizmatlar sifati:* Turistlar uchun qulay va sifatli xizmatlar ko'rsatish, ularning mamlakatda qolishlari va qaytib kelishlarini kuchaytirish uchun katta ahamiyatga ega. Bu mehmonxonalarining, restoranlarining, transport xizmatlarining, sayohatchilar qabulxonalarining va turistlarga qo'llab-quvvatlash xizmatlarining sifatini oshirishni o'z ichiga oladi.

*Majburiy tariflar va qonunlar:* Turizm sohasidagi majburiy tariflar va qonunlar, turistlarning xizmatlardan foydalanganligini va ularning himoyalanişini ta'minlashda juda muhimdir.

*O'quv yurtlari va kasb-hunar o'quv markazlari:* Turizm sohasida mutaxassislar va xodimlarni tayyorlashda yuqori sifatli o'quv yurtlari va kasb-hunar o'quv markazlari juda muhimdir. Bu, turizm sifatini oshirish va qo'llab-quvvatlash uchun talabalarni xush ma'lumotlar olish uchun zarurdir.

*Tabiiy resurslarni himoya qilish:* Turizmning asosiy manbai tabiiy resurslar bo'lib, ularni himoya qilish va saqlab qolish muhimdir. Shu jumladan, tabiiy muzeylar, parklar, rezervatlar va biosfera koridorlari turizm salohiyatini oshirish uchun muhimdir.

Bu yo'nalishlar bir mamlakat yoki hududning turizm sifatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalardir. Har bir yo'nalish turizmning o'sishiga va xavfli joylarni kamaytirishga yordam beradi.

Vazirlar Mahkamasining "2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi.

Turizm va madaniy meros vazirligi, Fanlar akademiyasi va Buxoro viloyati hokimligining:

- Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi "Qadimgi Poykent" arxeologiya merosi obektini muhofaza qilish hamda Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi filiali "Qadimiy Poykent shaharchasi tarixi muzeyi" negizida ochiq osmon ostidagi muzey tashkil etish;

- Poykent muzeyida arxeologiya ashyolari ko'rgazma-ekspozitsiyalari hamda arxeologiya tadqiqotlari bazasini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullanadi.

Quyidagilar "Poykent" muzeyi asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilanadi:

- "Qadimgi Poykent" arxeologiya merosi obektini muhofaza qilish, konservatsiyalash va asrab-avaylash, obektda olib borilayotgan arxeologik qidiruv, qazishma, qutqaruv va nazorat ishlarini tashkil etish;

- arxeologiya tadqiqot ishlari davomida ochib o'rganilgan arxeologiya ashyolari, noyob osori-antiqalarni restavratsiya va konservatsiya qilish;

- "Poykent" muzeyi haqidagi respublika hududida saqlanayotgan ma'lumotlarni malakali mutaxassis va ekspertlar, olimlarni jalb etgan holda tadqiq etish, ular haqida batafsil ma'lumotlar bazasini yaratish va muntazam yangilab borish, xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etish, matbaa mahsulotlarini tayyorlash, ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish;

- tarixiy-ilmiy asoslar bo'yicha "Poykent" muzeyida joylashgan bino va inshootlar maketlarini tayyorlash, arxeologiya ashyolari, qadimgi yozma manbalar, tarixiy hujjatlar, osori-atiqalar, zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari, monografiya va ilmiy

to‘plamlar, video va fotohujjatlar hamda boshqa manbalar hisobiga ko‘rgazma-ekspozitsiya tashkil etish;

- “Poykent” muzeyida yuqori texnologiyalarga asoslangan axborot-resurs markazini tashkil etish va uning faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish.

O‘zbekiston bosh vaziri o‘rinbosari - turizm va madaniy meros vaziri Aziz Abduhakimov 2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturni amalga oshirishda mas’ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

- 2022-2026 yillarda xorijiy va mahalliy turistlar sonini 5 mln nafarga, eksport hajmini 600 mln AQSh dollariga yetkazish rejasini amalga oshirish;

- viloyatning turizm infratuzilmasini kengaytirishda Buxoro aeroporti orqali muntazam xalqaro aviaqatnovlar sonini oshirish;

- turli mulkchilik shaklidagi 255 ta mehmonxona barpo etish, 60 ta yangi turizm marshrutlarini tashkil qilish;

- viloyatdagi 800 dan ziyod madaniy meros obektlarining ta’mirga muhtojlarini birma-bir restavratsiya qilish va bunga mahalliy hamda xorijiy olimlar, restavratorlar va daxldor nufuzli mutaxassislarni jalb qilish;

- “Ark qo‘rg‘oni”ning bundan 100 yil oldin vayron qilingan qismlari poydevor qismini olib, arxeologik park-muzeyga aylantirish;

- Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining Buxoro filialini hamda Buxoro davlat universitetida arxeologiya kafedrasini tashkil qilish;

- Buxoro shahrida eng zamonaviy jihozlangan tarix muzeyini tashkil etish va unda viloyatda mavjud 130 mingdan ziyod eksponatdan Buxoro tarixining eng noyob durdonalarini joylashtirish;

- mahalliy yoshlarni gid-kuzatuvchilik mutaxassisligi bo‘yicha qayta tayyorlash, malakasini oshirish bo‘yicha qisqa kurslar, xorijiy va mahalliy turoperatorlar, jurnalistlar, bloger va vloger (videobloger)lar ishtirokida informatsion turlar tashkil qilish;

- Buxoro viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, turizm salohiyatini aks ettiruvchi va targ‘ibot qiluvchi matnli va video materiallarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlash, ommaviy axborot vositalarida, televideniye va radioda muntazam yoritib borish hamda turistik obektlarga tarqatishni tashkil qilish;

- ulug‘ alloma Abu Ali ibn Sino tug‘ilib o‘sgan Afshona qishlog‘ini turizm shaharchasiga aylantirish vazifalarning ijrosini o‘z vaqtida sifatli ta’minlaydi.

Turizm va madaniy meros vazirligi, Qurilish vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

- Buxoro shahar I.Karimov ko‘chasida “Street Food” gastronomik ko‘chasini tashkil etish bo‘yicha konsepsiya va tashkil qilinadigan obektlar joylashuv nuqtalarini shakllantiradi;



• Buxoro viloyati hududidan o‘tuvchi M-37 va A-380 avtomagistral yo‘lbo‘yi hududlarida sayyohlar, yo‘lovchi va haydovchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish, yo‘lbo‘yi infratuzilmasini rivojlantirish, jozibadorligini oshirish hamda aholi kamdaromad qatlami, yoshlar, ayollarni ish bilan band qilish, hunarmandchilik va qandolatchilik yo‘qolib borayotgan turlari mahsulotlari savdosini yo‘lga qo‘yish maqsadida ixcham milliy – namunaviy loyihalar asosida yengil konstruksiyali infratuzilma obektlarini tashkil etish, ularning har tomonlama qulay joylashuvini ta‘minlash choralarini ko‘radi.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Buxoro viloyati hokimligi, Turizm va madaniy meros vazirligining “Buxoro ixtisoslashtirilgan jayron pitomnigi”ni 2022-2026 yillar davomida zamonaviy turistik obektga aylantirish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanadi.

O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, Buxoro viloyati hokimligi, Qurilish vazirligi, Turizm va madaniy meros vazirligi Jondor ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligi hududiga tutash joyda joylashgan “Varaxsho” arxeologik qal‘asi atrofidagi 50 gektar yer maydonini arxeologik yodgorlik hududi va uning muhofaza zonasida Madaniy meros agentligi huzuridagi ilmiy-ekspert kengashi ijobiy xulosasi olinmasdan qurilish-ta‘mirlash ishlarini olib bormaslik sharti bilan Jondor ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligi tasarrufiga o‘tkazish takliflari ma‘qullanadi.

Turizm va madaniy meros vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi bilan birgalikda Buxoro shahrida mavjud “Buxorolik boy savdogar uy-muzeyi” yodgorlik majmuasini “Fayzulla Xo‘jayev uy-muzeyi” deb qayta nomlab, uning yangi ekspozitsiyasi yaratilishini ta‘minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi NoPQ-3217-sonli qarori //Xalq so‘zi, 2017-yil 17-avgust.
- 2) Tuxliyev.I.S., Hayitboyev.R., Ibodullayev.N.E., Amriddinova R.S. Turizm asoslari: O‘quv qo‘llanma –S.: SamISI, 2010-247 b..12.
- 3) Абдувоҳидова. Туризмда ахборот технологиялари. Дарслик. –Т.: ТДИУ. 2019 й.13.VoskolovichN.A. Маркетинг туристических услуг. Учеб. 2-е изд. –М.: «ЮНИТИ-ДАНА» 2009. 207
- 4) Frommer P., Silver K. “Las Vegas”. Wilet Publishing Inc, LV. 2015
- 5) [www.prezident.uz](http://www.prezident.uz) – Prezident matbuot xizmati sayti.

РОЛЬ МАРКЕТИНГА В РАЗВИТИИ МАЛОГО БИЗНЕСА  
В УЗБЕКИСТАНЕ

*Ражабова Умида Умурзаковна*  
*Магистрантка ТГЭУ группы ММРТ-31*  
*факультета «Маркетинг и логистика»*  
*E-mail: franchiseska50701@gmail.com*

**Аннотация:** В научной статье проанализирована сфера малого бизнеса в Узбекистане – какие предпринимаются действия для поддержки отрасли и роль маркетинга в ее развитии. Рассмотрены причины недоверия субъектов малого бизнеса в силу маркетинга, а также для них приведены 5 действующих стратегий с небольшими затратами.

**Ключевые слова:** малый бизнес, индивидуальное предпринимательство, маркетинг в малом бизнесе, маркетинговая стратегия, рынок услуг.

**Annotation:** The scientific article analyzes the sphere of small business in Uzbekistan – what actions are being taken to support the industry and the role of marketing in its development. The reasons for the distrust of small businesses and 5 effective strategies with low costs are given for them.

**Keywords:** business categories, small business, individual entrepreneurship, marketing in small business, marketing strategy, service market.

Развитие малого предпринимательства Узбекистана способствует постепенному созданию широкого слоя мелких собственников, самостоятельно обеспечивающих собственное благосостояние и достойный уровень жизни, что и является основой социально-экономических реформ. Сектор малого предпринимательства способен создавать новые рабочие места, а, следовательно, может обеспечить снижение уровня безработицы, что играет важную роль в развитии экономики страны.

В последние годы в Узбекистане уделяется особое внимание на сферу предпринимательства, в частности, малого бизнеса. Со стороны государства в целях поддержки субъектов малого бизнеса разрабатываются программы развития бизнеса, снижаются налоговые ставки, выделяются кредиты.

«Теперь, чтобы малые предприниматели „встали на ноги“ и расширили свою деятельность, мы внедрим совершенно новые подходы. Будет создана целостная экосистема по обучению представителей данного сектора предпринимательству, разработке для них проектов, финансированию деятельности, поиску бизнес-партнёров и рынка сбыта продукции», — заявил Шавкат Мирзиёев на ежегодной встрече с предпринимателями 21 августа 2023

года [1].

Также кроме поддержки со стороны государства в развитии данной сферы немаловажную роль играют маркетинговые исследования, анализ рынка и составление маркетинговых стратегий.

Как говорил психолог и автор ряда научных работ по маркетингу Стюарт Хендерсон Бритт: «Бизнес без рекламной кампании похож на подмигивание во тьме. Никто не увидит и не поймет ваши действия – только вы и будете знать о происходящем». То есть очень важно донести до покупателей суть деятельности бизнеса – продукта или услуги, которая производится и продается. Сегодня, в пору, когда конкуренция на рынке растет с каждым днем все больше и больше, с чего бы покупателям приобретать тот или иной товар у того, кого не знают? Знание о том или ином бренде формирует доверие к нему, в последствии также и лояльность у покупателей. В статье рассматривается роль маркетинга в развитии малого бизнеса в Узбекистане. Однако, для начала определим, кто входит в категорию малого бизнеса у нас в стране.

Согласно указу президента «О мерах по дальнейшему совершенствованию критериев разделения субъектов предпринимательства на категории, а также налоговой политики и налогового администрирования» от 10 февраля 2023 года субъекты малого предпринимательства разделены на категории на основе следующих критериев:

- индивидуальные предприниматели;
- микрофирмы – субъекты, учредителями (участниками) которых являются физлица, с совокупным доходом до 1 млрд сумов в течение календарного года;
- малые предприятия – субъекты с совокупным доходом от 1 до 10 млрд сумов в течение календарного года, а также микрофирмы, учредителями (участниками) которых являются юрлица.

По данным Агентства статистики общее количество субъектов малого предпринимательства в Узбекистане на 1 октября 2022 года составило – 509 720, что на 35 015 больше, чем в 2021 году. Несмотря на явный рост количества субъектов малого предпринимательства, стоит упомянуть, что многие малые бизнесы закрываются из-за таких проблем, как отсутствие клиентов, низкий уровень продаж, неправильно составленная стратегия продвижения и других.

**Таблица 1**

**Доля малого бизнеса и частного предпринимательства в отраслях экономики (данные приведены в % к общему объему)**

№	Показатели	2021	2022	2023 (с января по сентябрь)

1	ВВП	54,1	51,8	51,2
2	Промышленность	27.4	26.0	25.9
3	Строительство	72,5	71,5	74,2
4	Занятость	74,5	73,9	—
5	Экспорт	20.0	29.6	30,1
6	Импорт	45,3	49,4	49,8

Судя по данным, приведенным в таблице, доля субъектов малого предпринимательства в отраслях экономики начиная с каждым годом растет. За третий квартал 2023 года показатель почти уже достиг показателя за целый 2022 год. Однако, если сравнить 2021 и 2022 годы, то увеличение показателей рассматривались только в отраслях экспорта и импорта.

Если говорить о сути маркетинга в отраслях сферы малого бизнеса, то это комплексная система управленческой, регулирующей и исследовательской деятельности, учитывающая отраслевые особенности, которая направлена на удовлетворение потребностей общества в соответствии с покупательским спросом. Главной целью маркетинга является удовлетворение потребностей общества с учетом материальных и духовных запросов.

Основные направления маркетинговой деятельности являются ключевыми составляющими всех стадий воспроизводственного процесса — от производства и распределения, обращения до стадии конечного потребления.

За последние несколько лет качественно новое развитие получил рынок услуг сферы малого бизнеса, представляющий социально-экономический комплекс, работа которого осуществляется в соответствии с рыночными законами, национальной спецификой, территориальной масштабностью в целях усиления роли институтов потребителей и повышения качества жизни общества.

Массовое развитие малых предприятий способствует изменению общественной психологии и жизненных ориентиров основной массы населения. Значимая роль малого предпринимательства в экономической жизни Узбекистана определяется тем, что в данном секторе экономики действует подавляющее большинство предприятий, в ней сосредоточена большая часть экономически активного населения. Важнейшими особенностями малого предпринимательства являются способность к ускоренному освоению

инвестиций и высокая оборачиваемость оборотных средств. Еще одной характерной чертой этого сектора является активная инновационная деятельность, способствующая ускоренному развитию различных отраслей хозяйства во всех секторах экономики Узбекистана.

При этом, стоит отметить, что в странах СНГ многие предприниматели считают затраты на маркетинговые исследования пустой тратой средств и времени. На самом деле, наоборот, как для увеличения прибыли предпринимателя, так и количество клиентов, в первую очередь необходимо разработать продуманную маркетинговую стратегию. Как маркетолог и специалист, который не раз сталкивался с такими случаями, могу утверждать, что в Узбекистане субъекты малого предпринимательства сильно недооценивают силу маркетинга. Этому способствуют несколько причин:

1. **Консервативные взгляды предпринимателей.** Владельцы бизнесов считают маркетинговые затраты пустой тратой времени и средств. Многие утверждают, что достаточно просто открыть офлайн-точку, а клиенты сами придут без какой-либо рекламы и стимулирования интереса дополнительными каналами.

2. **Малый объем финансовых средств.** Название категории говорит само за себя, когда у субъекта малого предпринимательства много и других затрат, поэтому сложно выделить бюджет для специалиста по маркетингу, так как результат его работы обычно сложно оценить моментально.

3. **Неудачный опыт.** Когда-то предприниматель выделил бюджет для маркетинга, не увидел результата и потерял доверие к маркетологам.

Но с каждым днем конкуренция во всех сферах становится все больше и больше. Поэтому сейчас без присутствия компании в онлайн создать успешный и узнаваемый бренд фактически невозможно. Не подстраиваясь под изменения в сфере бизнеса, предприниматели своей негибкостью попросту губят все то, что выстраивалось годами. А их места потихоньку занимают свежие умы, готовые рисковать и пробовать все новое. Как говорил Билл Гейтс: «Если вашего бизнеса нет в интернете, значит вас нет в бизнесе». Таковы уж требования XXI века.

Для маркетологов в организациях малого бизнеса это своего рода искусство — достичь как можно лучших результатов с минимальными затратами. Согласно исследованию издания The Manifest треть МСБ тратят на рекламу меньше 10 000 долларов США в год. Перед специалистами в области маркетинга малого бизнеса стоит непростая задача — повысить узнаваемость бренда, увеличить популярность в интернете и завоевать доверие клиентов — и все это в условиях ограниченного времени и средств, а также при наличии ресурсов у более крупных конкурентов.



Рассмотрим 5 стратегий маркетинга для субъектов малого бизнеса:

1. **Маркетинговый план.** То, что может казаться очевидным для маркетологов крупных хорошо зарекомендовавших себя компаний, часто ускользает от маркетологов компаний малого бизнеса. По иронии судьбы никто так сильно не нуждается в маркетинговом плане, как маркетологи компаний малого бизнеса. Надежный план дает возможность поставить перед всеми сотрудниками одни и те же цели, применять одни и те же стратегии, а также наиболее эффективно использовать силы и средства.

2. **Социальные сети, электронная почта и видеоролики.** Любой маркетолог компании малого бизнеса, который не знает, с чего начать, должен обратиться к социальным сетям и электронной почте, популярным благодаря низкой стоимости и большому влиянию, и даже видео, которое может стать доступным с помощью правильных инструментов. Малый бизнес может извлечь огромную пользу из бесплатных функций социальных платформ. Они позволяют напрямую связываться и взаимодействовать с аудиторией, отвечать на вопросы, проводить онлайн-мероприятия и сообщать клиентам о специальных предложениях.

3. **Продвижение внутри сообщества и использование его возможностей.** Взаимовыгодное сотрудничество с другими компаниями или организациями может существенно повысить эффективность маркетинговой деятельности и принести лучшие результаты. Часто совместное продвижение позволяет организациям малого бизнеса разделить затраты, охватить более широкую аудиторию и поделиться опытом.

4. **Совершенствование веб-сайта.** После привлечения интернет-трафика на сайт, стоит убедиться в том, что посетителям есть что посмотреть и есть чем заняться. Вне зависимости от того, используют пользователи мобильную версию сайта или нет, им должно быть как можно проще находить то, что нужно. Для этого навигация и блоки на странице должны быть оптимизированы.

5. **Переупаковка.** Создание качественного, а также интересного для аудитории контента требует времени, средств и таланта. После создания маркетинговой стратегии для соцсетей обязательно необходимо анализировать результаты и тестить гипотезы с оформлением и продвижением страницы.

Эти пять стратегий могут помочь маркетологам малых предприятий добиться хороших результатов при ограниченных ресурсах, а также предоставить им возможность направить усилия в нужное русло, чтобы получить максимальную выгоду от инвестиций.

**Список использованной литературы:**

1. Указ Президента от 10.02.2023 г. №УП-21 «О мерах по дальнейшему совершенствованию критериев разделения субъектов предпринимательства на категории, а также налоговой политики и налогового администрирования»;
2. Сатторкулов, О. Т. Роль и значение малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике Узбекистана / О. Т. Сатторкулов, Б. Б. Тошбоев. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2015;с
3. Алешина И. В. Поведение потребителей. - М.: Фаир-Пресс, 2021;
4. Котлер Ф. Основы маркетинга / Пер. с англ. - М: Прогресс, 2022;
5. Давыдова Е.Ю. Место и роль малого предпринимательства в развитии региона // Экономика и социум. - 2015. - № 1. - С. 465-468.

**Интернет-сайты:**

<https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/small-business-and-entrepreneurship>  
[https://www.norma.uz/novoe\\_v\\_zakonodatelstve/opredeleny\\_kriterii\\_razdeleniya\\_predprinimateley\\_na\\_kategorii](https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/opredeleny_kriterii_razdeleniya_predprinimateley_na_kategorii)  
[https://www.gazeta.uz/ru/2023/08/21/business/?utm\\_source=push&utm\\_medium=telegram](https://www.gazeta.uz/ru/2023/08/21/business/?utm_source=push&utm_medium=telegram)  
<https://stat.uz/ru/press-tsentr/novosti-goskomstata/28956-faoliyat-ko-rsatayotgan-tadbirkorlik-subyektlari-soni-2>  
<https://visasam.ru/emigration/economy/razvitie-ekonomiki-ssha.html>  
<https://www.spot.uz/ru/2023/02/10/business-categories/>  
<https://www.gazeta.uz/ru/2023/02/10/classification/>  
<https://themanifest.com/advertising/blog/small-business-advertising-spending>

LOGISTIKA FAOLIYATINING FUQAROLIK-HUQUQIY  
ASOSLARINI O'RGANISH

*Huquqshunos A.Eshonqulov*

*E-mail: [Azimjon.uz@gmail.com](mailto:Azimjon.uz@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Logistika sektori tovarlar va xizmatlarning turli geografik joylashuvlar bo'ylab harakatlanishini osonlashtirish orqali jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning ahamiyatiga qaramay, logistika faoliyatini tartibga soluvchi fuqarolik-huquqiy jihatlar nisbatan kam o'rganilmagan. Ushbu tezisda logistika faoliyatining fuqarolik-huquqiy holatini har tomonlama tahlil qilish orqali ushbu bo'shliqni bartaraf etishga qaratilgan. Huquqiy, iqtisodiy va logistika istiqbollari o'z ichiga olgan fanlararo yondashuv orqali ushbu tadqiqot logistika sanoatiga tegishli normativ-huquqiy bazalarni, shartnomaviy munosabatlarni, majburiyatlarni va nizolarni hal qilish mexanizmlarini o'rganadi. Amaliy tadqiqotlar va qiyosiy huquqiy tahlillarni o'rganish orqali ushbu tadqiqot mahalliy va xalqaro kontekstlarda logistika faoliyatini tartibga solishga xos bo'lgan murakkabliklar va muammolarni yoritadi.

**Kalit so'zlar:** logistika, tashish, tashuvchi, yuk topshiruvchi, transport vositasi, transit tashish, taraflarning huquq va majburiyatlari, tashuvchining javobgarligi.

**Kirish:**

Zamonaviy iqtisodiyot tovarlar va xizmatlarning o'z vaqtida va tejamkor harakatini ta'minlash uchun samarali logistika operatsiyalariga tayanadi. Biroq, logistika faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi ko'p qirrali bo'lib, ko'plab me'yoriy hujjatlar, shartnomalar va majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, u logistika faoliyatining fuqarolik-huquqiy holatini tushunish uchun muhim bo'lgan ta'minot zanjiri boshqaruvi, transport qonuni va shartnoma huquqi kabi asosiy tushunchalarni taqdim etadi.

**Logistika sohasidagi normativ-huquqiy bazalar**

Ushbu qismda milliy, mintaqaviy va xalqaro darajadagi logistika faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazalarni ko'rib chiqadi. U transport, omborxonalar, bojxonalar va savdoga ko'maklashish bilan bog'liq me'yoriy hujjatlarni shakllantirish va amalga oshirishda davlat idoralari, sanoat birlashmalari va millatlararo tashkilotlarning rolini o'rganadi. Turli yurisdiksiyalardagi tartibga solish yondashuvlarining o'zgarishini va logistika xizmatlarini etkazib beruvchilar va foydalanuvchilarga ta'sirini ta'kidlash uchun amaliy tadqiqotlar va qiyosiy tahlillardan foydalaniladi.

Logistika faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy muhit turli davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va sanoat birlashmalari tomonidan o'rnatilgan qonunlar,

qoidalar, standartlar va siyosatlarining murakkab gobelenidir. Logistika sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazalar evolyutsiyasini hukumatlar savdo yo'llari, tariflar va bojxona to'lovlarini tartibga solish uchun qonunlar qabul qilgan qadimgi davrlarda kuzatilishi mumkin. Asrlar davomida savdoning kengayishi va transport texnologiyalarining rivojlanishi bilan tartibga solishning yanada murakkab mexanizmlariga ehtiyoj paydo bo'ldi.

Milliy darajada hukumatlar logistika faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda markaziy rol o'ynaydi. Shu ma'noda mamlakatlarning tartibga solish rejimlari o'rganiladi. Milliy me'yoriy-huquqiy bazalarning logistika operatsiyalariga, jumladan muvofiqlik xarajatlari, ma'muriy yuklar va bozorga kirish to'siqlariga ta'sirini o'rganish uchun amaliy tadqiqotlar va qiyosiy tahlillar qo'llaniladi.

O'zaro bog'liqlik kuchayib borayotgan dunyoda mintaqaviy integratsiya va tartibga solish standartlarini uyg'unlashtirish savdoni osonlashtirish va logistika samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Logistika faoliyatida Evropa Ittifoqi, NAFTA va ASEAN kabi mintaqaviy iqtisodiy bloklarning bojxona tartib-qoidalarini uyg'unlashtirish, hujjatlar talablarini standartlashtirish va transport tarmoqlarining o'zaro ishlashini rag'batlantirishdagi roli muhim hisoblanadi. Shuningdek, u mintaqaviy integratsiya tashabbuslari bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlarni, jumladan, huquqiy uyg'unlashtirish, tartibga solish yaqinlashuvi va institutsional muvofiqlashtirishni o'rganadi.

Savdoning globallasuvi transchegaraviy muammolarni hal qilish va global ta'minot zanjirlarining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun xalqaro tartibga solish vositalarini ishlab chiqish zaruratini tug'dirdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tovarlarni xalqaro sotish bo'yicha shartnomalari to'g'risidagi konventsiyasi (CISG), Xalqaro dengiz tashkilotining (IMO) SOLAS konventsiyasi va Jahon savdo tashkilotining (IMO) kabi logistika faoliyatiga tegishli asosiy xalqaro konventsiyalar, shartnomalar va bitimlar ko'rib chiqiladi. U ushbu xalqaro hujjatlarning logistika xizmatlarini ko'rsatuvchi provayderlar va foydalanuvchilarga, jumladan muvofiqlik talablari, nizolarni hal qilish mexanizmlari va javobgarlik rejimlariga ta'sirini tahlil qiladi.

### **Logistika sohasidagi shartnomaviy munosabatlar**

Shartnomaviy munosabatlar yuk jo'natuvchilar, tashuvchilar, ekspeditorlar va ta'minot zanjirida ishtirok etuvchi boshqa tomonlar o'rtasidagi shartnomalarni o'z ichiga olgan logistika operatsiyalarining asosini tashkil qiladi. Ushbu bob logistika sohasida keng tarqalgan shartnomalar turlarini o'rganadi, masalan, yuk hujjatlari, ombor kvitansiyalari va xizmat ko'rsatish darajasi bo'yicha shartnomalar va boshqalar. U shartnoma tuzuvchi tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va majburiyatlarini, shuningdek shartnoma tuzish, bajarish va bekor qilishni tartibga soluvchi huquqiy

ta'limotlarni o'rganadi. Shartnomaviy munosabatlar logistika operatsiyalarining asosini tashkil etadi va tomonlar o'zaro hamkorlik qiladigan va tovarlar va xizmatlarni almashadigan huquqiy bazani tashkil qiladi. Ushbu bobda biz logistika sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning nuanslarini chuqurroq o'rganamiz, nafaqat keng tarqalgan shartnomalar turlarini, balki texnologik taraqqiyot va o'zgaruvchan bozor dinamikasiga javoban ushbu shartnomalarning rivojlanayotgan tabiatini ham o'rganamiz.

Logistika sanoati har xil turdagi shartnomalar orqali ishlaydi, ularning har biri ta'minot zanjirining o'ziga xos jihatlarini hal qilish uchun mo'ljallangan. Kontrakt, ombor shartnomalari va yuk tashish shartnomalari kabi an'anaviy shartnomalar tranzaksiyalarni osonlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynashda davom etmoqda. Biroq, raqamlashtirishning paydo bo'lishi va elektron tijoratning yuksalishi elektron ma'lumotlar almashinuvi (EDI) kelishuvlari, blokcheynga asoslangan aqlli shartnomalar va dasturiy ta'minot sifatida xizmat (SaaS) obunalari kabi yangi shartnoma vositalarini keltirib chiqardi.

Logistika sohasida shartnomalarni shakllantirish va bajarish qonuniy tamoyillar, sanoat standartlari va texnologik innovatsiyalarning murakkab o'zaro ta'siri bilan tartibga solinadi. Shartnoma tuzishning asosiy elementlarini, jumladan taklif va qabul qilish, ko'rib chiqish va o'zaro rozilikni o'rganadi va ularning har xil turdagi logistika shartnomalariga qo'llanilishini baholanadi. Bundan tashqari, u logistika operatsiyalarida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilashda standart shartlar, Inkoterms qoidalari va boshqa shartnoma tuzilmalarining rolini o'rganadi. Transchegaraviy shartnomalar bilan bog'liq muammolar, masalan, yurisdiksiya masalalari, qonun moddalarini tanlash va madaniy tafovutlar va bu to'siqlarni engib o'tish uchun qo'llaniladigan strategiyalarga alohida e'tibor beriladi. Logistika sohasidagi shartnoma munosabatlarining keng qamrovli tahlilini o'z ichiga shartnoma turlarini, shakllanish va ishlashni hisobga olgan holda, javobgarlik va risklarni taqsimlash mexanizmlarini, nizolarni hal qilish strategiyalarini oladi. Huquqiy tamoyillar, sanoat amaliyoti va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganib, ushbu tadqiqot logistika shartnomalarining rivojlanayotgan tabiati va ta'minot zanjiri boshqaruvining kelajagini shakllantirishdagi rolini yoritadi. Bu shartnoma tuzuvchi tomonlar o'rtasida shaffoflik, adolat va ishonchni rag'batlantirish bilan birga logistika sanoatining dinamik tabiatiga mos keladigan moslashuvchan va moslashuvchan shartnoma tuzilmalarini qabul qilish muhimligini ta'kidlaydi.

### **Majburiyatlar va risklarni boshqarish**

Logistika faoliyati yukning yo'qolishi yoki shikastlanishi, kechikishlar, me'yoriy hujjatlarga rioya qilmaslik va boshqa omillardan kelib chiqadigan turli xil xavf va majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu bobda ta'minot zanjirida manfaatdor



tomonlar o'rtasida javobgarlikni taqsimlashni tartibga soluvchi huquqiy tamoyillar, jumladan, tashuvchilarning javobgarlik rejimlari, sug'urta qoplamasi va zararni qoplash qoidalari tahlil qilinadi. Shuningdek, logistika kompaniyalari tomonidan potentsial majburiyatlarni yumshatish va ularning manfaatlarini himoya qilish uchun qabul qilingan risklarni boshqarish strategiyalari muhokama qilinadi. Logistika operatsiyalarida majburiyatlarni taqsimlash shartnomaviy bitimlar, qonun hujjatlari va umumiy huquq tamoyillarining murakkab o'zaro ta'siri bilan tartibga solinadi. Logistika sohasida javobgarlikni taqsimlashning markaziy elementlaridan biri yuk tashish paytida yo'qolishi, shikastlanishi yoki kechikishi uchun tashuvchilarning javobgarligini tartibga soluvchi rejimdir. Avtomobil, temir yo'l, havo va dengiz transporti kabi transportning turli turlariga nisbatan qo'llaniladigan turli javobgarlik rejimlari ajratiladi. Unda Gaaga-Visbi qoidalari, Varshava konventsiyasi va Monreal konventsiyasi kabi xalqaro konventsiyalar, shuningdek, turli yurisdiksiyalarda tashuvchilarning javobgarligini tartibga soluvchi ichki qonunlar tomonidan belgilangan huquqiy asoslar qo'llaniladi.

Sug'urta kutilmagan hodisalar va majburiyatlardan moliyaviy himoyani ta'minlash orqali logistika operatsiyalari bilan bog'liq risklarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Logistika sohasida keng qo'llaniladigan yuklarni sug'urtalash, javobgarlikni sug'urtalash va ekspeditorlar javobgarligini sug'urtalash kabi sug'urta mahsulotlari turlarini mavjud bo'lib, u sug'urta polislarini qoplash doirasi, istisnolar va cheklovlarni, shuningdek, sug'urtalovchilar va sug'urtalangan shaxslar o'rtasida tavakkalchilikni o'tkazish va subrogatsiya qilish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

### **Nizolarni hal qilish mexanizmlari**

Ko'pincha logistika operatsiyalari jarayonida nizolar yuzaga keladi, bu esa hal qilish va qaror qabul qilishning samarali mexanizmlarini talab qiladi. Ushbu bobda nizolarni hal qilishning mavjud mexanizmlari, jumladan, muzokaralar, vositachilik, arbitraj va sud muhokamasi ko'rib chiqiladi. U har bir yondashuvning afzalliklari va kamchiliklarini xarajat, vaqt, ijro etilishi va protsessual adolatlilik nuqtai nazaridan baholaydi, bunda ularning bir nechta yurisdiksiyalarni o'z ichiga olgan transchegaraviy nizolarga qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi.

Nizolarni hal qilishning bir usuli sifatida muzokalar yetakchi o'rinda turadi. Negaki muzokaralar logistika sohasidagi nizolarni hal qilishda dastlabki qadam bo'lib xizmat qiladi. Nizoda ishtirok etayotgan tomonlar o'zaro maqbul qarorga kelish uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki vakillar orqali muzokaralar olib borishlari mumkin.

Mediatsiya nizolashayotgan tomonlarga ixtiyoriy kelishuvga erishishda yordam berish uchun neytral uchinchi tomon tomonidan yordam beradigan tizimli jarayonni taklif qiladi. Shu sababli mediatsiyaning asosiy xususiyatlari, jumladan, maxfiylik, xolislik va mediatorning muloqotni osonlashtirish va ijodiy yechimlarni rag'batlantirishdagi rolini o'rganadi. U bir nechta manfaatdor tomonlar ishtirokidagi

murakkab logistika nizolarini hal qilish uchun vositachilikning yaroqliligini tekshiradi, muvaffaqiyatli amaliy tadqiqotlar va logistika vositachiligidagi eng yaxshi amaliyotlarni yoritadi.

Agar nizolar yuqoridagi usullar yordamida hal qilimasa, unda taraflar keyingi usulni – arbitraj usulini qo'llashi mumkin bo'ladi. Arbitraj nizolarni hal qilishning yanada rasmiylashtirilgan mexanizmini taqdim etadi, bunda xolis arbitr yoki hay'at taraflar taqdim etgan dalillar asosida majburiy qaror qabul qiladi.

Xulosa qilib aytganda, logistika operatsiyalarini tartibga solishga xos bo'lgan murakkabliklar va muammolarni ochib berish orqali ushbu tadqiqot logistika sektori atrofidagi huquqiy landshaftni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. U logistika operatsiyalarida shaffoflik, samaradorlik va javobgarlikni rag'batlantiradigan, shu orqali iqtisodiy o'sish va jahon savdosini osonlashtiradigan qulay huquqiy muhitni shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Корнукова Мария Сергеевна, & Корякин Виктор Михайлович (2023). КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ И РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЯМЫХ СМЕШАННЫХ (МУЛЬТИМОДАЛЬНЫХ) ПЕРЕВОЗОК ГРУЗОВ В РОССИИ. *Право и управление*, (6), 66-69.
2. Елисеев Владимир Алексеевич (2017). Организация системы управления экспедиторскими услугами на железнодорожном транспорте. *Экономические и социально-гуманитарные исследования*, (1 (13)), 9-20.
3. Забелина, Д. В. (2012). Транспорт как сфера правового регулирования в России и США. *Право и современные государства*, (3), 57-63.
4. Filippova, T & Voronina, S. (2021). Organizational and Legal Aspects of Transport Logistics as a Factor of Sustainable Development. *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*. 670. 012048. 10.1088/1755-1315/670/1/012048.
5. Grygorak M. (2018). Development of theoretical bases for formation of the national logistics system. *Технологический аудит и резервы производства*, 1 (5 (39)), 8-14.
6. CURRENT STATE AND PROSPECTS OF DIGITAL TRANSFORMATION OF THE TRANSPORT AND LOGISTICS SECTOR OF UKRAINE. *Intellectualization of logistics and Supply Chain Management*, (2), 111-130. doi: 10.46783/smart-scm/2020-2-9

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILAR  
JASORATINING PSIXOLOGIK TAHLILI**

*Zohirov Nodirbek Ulug'bekovich*

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
magistratura tinglovchisi, leytenant*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning jasorat tuyg'usi, uning tarixdagi o'rganilish darajasi, ilmiy jihatdan asoslanishi hamda nazariy tahlili muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Harbiy xizmatchilar, jasorat, tuyg'u, qahramonlik, mardlik, vatan himoyasi, siyosiy, strategik, manfaat va boshqalar.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается чувство мужестве военнослужащих, уровень ее исторической изученности, научное обоснование и теоретический анализ.

**Ключевые слово:** Военнослужащие, мужество, чувство, героизм, храбрость, защита Родины, политический, стратегический, выгода и других.

**Annotation.** The article examines the sense of courage of military personnel, the level of its historical knowledge, scientific justification and theoretical analysis.

**Key words:** Militaries, courage, feeling, heroism, bravery, defense of motherland, political, strategic, interest etc.

Dunyodagi hozirgi geosiyosiy vaziyat va eng yirik jahon kuchlari o'rtasidagi keskinlikning doimiy ravishda kuchayishi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilaridan ham jangovar tayyorgarlikning, ham ma'naviy ham psixologik fazilatlarini shakllantirishning sifat jihatidan yangi darajasini talab qiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi davlati va armiyasi tarixini tahlil qilish ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, askarlarning qat'iyatligi va jasorati har doim jangovar topshiriqlarni bajarishda hal qiluvchi rol o'ynagan.

Bundan tashqari, hozirgi kunda xorij mamlakatlarida turli xil vaziyatga tushgan insonga nisbatan befarqlik o'z navbatida bizning jamiyatimizni ham qamrab olmoqda. Shu nuqtai nazardan davlatlar o'rtasidagi murosasizliklarda, shuningdek, yuzaga keladigan ekstremal(favqulodda) vaziyatlarda ko'ksini qalqon qilib turadigan, el-yurt tinchligi, xalqining osoyishtaligini saqlashga bel bog'lagan harbiy xizmatchilarni tarbiyalash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Har bir davlatning o'ziga xos etnik jihatdan kelib chiqishi bo'lganidek, qadimgi o'zbek elining ham buyuk hamda ulug'langan tarixi mavjud. Bunday shonli tarixga o'chmas, bitmas-tuganmas iz qoldirgan ajdodlarning yodi barhayotdir. Jumladan, o'z zamonasining dono hamda mohir sarkardalaridan bo'lmish, ayniqsa, o'zbek ayoli

timsolini yuksaklarga ko'targan To'maris, ikkala qo'lida ham shamshirni bemalol o'ynata olgan, o'zining diniy hamda dunyoviy bilimlari bilan o'zgalarni lol qoldirgan, Yevropa xaloskori bo'lmish Amir Temur, mo'g'ullar sultonini o'zining mardonavor xatti-harakatlari bilan rom etib, beqiyos jasoratni namoyon qilgan Jaloliddin Manguberdi ham diyorimiz pahlavonlaridandir. Ulardan tashqari Shiroq, Spitamen, Muqanna, Zahiriddin Muhammad Bobur, Temur Malik ham o'z zamonasining buyuk jasorat ko'rsatgan davlat arboblardan bo'lishgan.

Birgina, Jaloliddin Manguberding mustaqillik yillarida nomining tiklanishi hamda tavalludining 800-yiliga bag'ishlangan tantanali marosimda birinchi prezidentimizning so'zlagan nutqlari, nafaqat marosim ishtirokchilarini, balki, hozirgi kundagi vaziyatlarni ham yaqqol baholab bergan. "Jaloliddin Manguberding hayot yo'lini tahlil qiladigan, o'sha tarixiy voqealarga bugungi kun ko'zi bilan qarab baho beradigan bo'lsak, ular bizni mana shunday tabiiy va ibratli saboq-xulosalar chiqarishga undaydi.

Birinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, shu erkin, osuda hayotni ko'rolmaydigan, hasad va fitna bilan yashaydigan, zo'ravonlik bilan o'z hukmronligini o'rnatishga, xalq tinchini buzishga urinadigan yovuz kuchlar hamisha bo'ladi. Bu – hayot. Bu hayotning achchiq haqiqati. Uni hech kim inkor etolmaydi. Buni nafaqat o'z tariximiz va hayotimizda balki, boshqa xalqlar tarixi va hayotimisolida ham ko'rish mumkin.

Ikkinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat el-yurt bor ekan, o'zining tug'ilib o'sgan, ota- bobolarining xoki yotgan, ertaga farzandlarning kamol topadigan tuproqning har bir qarichini muqaddas bilib, uni himoyalash zarur bo'lsa, bu yo'lda jon fido etishga tayyor turish kerak.

Uchinchi achchiq xulosa shuki, har qaysi el, har qaysi yurt chetdan keladigan yovuz ofatdan ko'ra, o'z ichidan chiqadigan sotqin, iymonsiz, o'zining manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, kerak bo'lsa, eng yaqin kishilarini ham sotadigan o'zini o'stirgan, voyaga yetkazgan Vataniga qo'l ko'taradigan qabih kimsalardan nihoyatda ehtiyot bo'lishi kerak. Bunday kuchlar, razil shaxslarning kibr-u havosi, manfur maqsadlari el-yurt tinchligi va taraqqiyotiga qanday xavf-xatar ekanini bugungi hayotimizda ko'rib turibmiz. Takroran aytaman, bu nafaqat kechagi tariximiz, balki, bugungi hayotimiz bilan hamohang achchiq saboqdir.

Sulton Jaloliddinning bizga qoldirgan yana bir da'vati shuki, u barchamizni ona yurtimizning beg'ubor osmonini va osuda hayotini qadrlashga va o'sib kelayotgan, ertaga bizning o'rnimizni egallaydigan, dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan farzandlarimizning kelajagini baxt-saodatini himoyalashga, yorug' istiqbolga intilib yashashga chorlaydi.

Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O'zbekistonning faxr-u g'ururidir. U bizning ozodligimizga, istiqbolimizga tajovuz qilmoqchi bo'lgan

har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirligimizning tasdig'i va timsolidir.<sup>1</sup>

Jasorat va antagonist qo'rqoqlik bir-biri bilan chambarchas birga yashaydi. Ularni ajratib turadigan narsa xavf qo'rquvi va unga bo'lgan munosabat o'rtasidagi bo'shliqda joylashgan ularning qat'iyatidir. Jasorat ham, qo'rqoqlik ham qo'rqinchli bo'lishi mumkin, bu xavfli noaniqlik oldida birinchi bo'lib. Jasorat o'zini bajarishi kerak bo'lgan narsani qilishga majbur qiladi va shuning uchun jasorat deb ataladi. Odamlarning jasorati namunalari hozirgi zamonda ham uchrab turadi, shuning uchun hayotida tanqidiy vaziyatlarga duch kelgan, ammo taslim bo'lmagan, qo'rquvga berilmagan insonlarning nomlari ma'lum. Shunday qilib, jasorat boshqalarning hayotini saqlab qolgan (Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari, qutqaruvchilar, feldsherlar, harbiy xizmatchilar) yoki o'zini himoya qilish instinkti bilan bogliq kundalik tabiiy biologik qo'rquvni yengishga majbur bo'lgan odamlarga xosdir (uchuvchilar, kosmonavtlar,) va boshqalar.

Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmat davomidami yoki boshqa faoliyatlar doirasida bo'ladimi jasoratning yuzaga kelishida vatanparvarlik tuyg'usining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Vatanparvarlik tuyg'usi shakllanmagan shaxslar jasorat ko'rsata olmaydilar. Favqulodda vaziyatlarda ular avtomatik tarzda jasorat ko'rsatishga juda ham moyil bo'ladilar. Ekstremal vaziyat (lot. extremus) – to'satdan paydo bo'lgan, xavf soluvchi yoki inson tomonidan hayotiga, sog'lig'iga, shaxsiy butunligiga, baxtiga tajovuz sifatida subyektiv idrok qilinuvchi vaziyatdir.

Xalqda shunday hikmat bor: hayot 10 % ga biz bilan yuz berayotgan hodisalardan va 90 % - biz bu hodisalar haqida qanday fikrda ekanligimizdan iborat. Ekstremal vaziyat deyilganda oddiy (odatiy) inson tajribasidan chetga chiquvchi vaziyat tushuniladi. Boshqacha aytganda, vaziyatning ekstremalligini inson hali moslashmagan va u sharoitida harakatlanishga tayyor bo'lmagan omillar belgilaydi. Vaziyatning ekstremallik darajasi bu omillarining kuchi, davomiyligi, yangiligi bilan belgilanadi.

Lekin, ekstremal vaziyatni inson va uni yaqinlarining hayoti uchun real, obyektiv mavjud xavf emas, balki ro'y berayotgan hodisaga insonning munosabati ham yaratadi. Har bir hodisa muayyan inson tomonidan individual idrok qilinadi va shuning uchun ham "ekstremallik" shaxsning ichida bo'ladi.

Ekstremallikni belgilovchi omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Vaziyatning mas'uliyatliligi, xavfliligi, murakkabligi, yangiligi bilan bog'liq turli emotsional ta'sirlar.
- Ma'lumotlarning yetarli emasligi yoki qarama qarshi ma'lumotlarning haddan ziyod ko'pligi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov, Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yiliga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqidan. 1995-yil 5-noyabr



- Haddan ortiq psixik, jismoniy emotsional zo‘riqish.
- Noqulay iqlim sharoiti, jazirama, sovuq, kislorod yetishmasligi va h.k. ta’siri.
- Chanqoqlik va ochlikning mavjudligi.

So‘ngso‘z o‘rnida shuni ta’kidlasak maqsadga muvofiq bo‘lardiki, biz jasorat hamda matonat namunalarini ko‘rsatgan, Vatan himoyasida fidoyilik ko‘rsatgan ota-bobolarimiz qahramonliklarini hech qachon unutmaymiz. Ular bilan umrbod faxrlanamiz. Ajdodlar oldidagi farzandlik burchimiz deb, – umrbod xalqimiz jasoratini unutmaslik, xotirasini abadiy yodda saqlash, tarixdan kerakli xulosalar chiqarish, yoshlarimizni shunday zaminda yashashdan faxr-iftixor tuyish ruhida tarbiyalashni bilamiz!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” Toshkent: O‘zbekiston, 2022 y. 4-27 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk –G‘alabaning 75 yilligi kuniga bag‘ishlangan nutqi “Mangu jasorat” nomli adabiyot Toshkent 2020 yil. 1-13b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.06.2023 yildagi 267-son
- 4.<http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/18322-islomda-vatan-va-unimoyasi>

## HARBIY XIZMATCHILARNING STRESSGA MOYILLIGINI TADQIQOT NATIJALARIDA EMPERIK TAHLILI

*Axmadjonov Maxmudjon Botir o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining psixologiyasi va kasbiy faoliyatiga psixologik talablar o'rganiladi. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan stress va depressiv holatlari va ularni yengish, ushbu yo'nalishdagi asosiy psixologik xususiyatlarini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi, stress, depressiya, stressga chidamlilik, moslashuvchanlik, psixoterapiya, diagnostika, korrektsiya.

### ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ ИССЛЕДОВАНИЯ СТРЕССЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

**Абстрактный.** В данной статье рассматривается психология военнослужащих Национальной гвардии и психологические требования к их профессиональной деятельности. Стрессовые и депрессивные состояния, возникающие в профессиональной деятельности военнослужащих Национальной гвардии, и их преодоление выявляют основные психологические особенности этого направления.

**Ключевые слова:** военнослужащий Росгвардии, стресс, депрессия, стрессоустойчивость, гибкость, психотерапия, диагностика, коррекция.

### EMPIRICAL ANALYSIS OF RESEARCH RESULTS OF MILITARY PERSONNEL'S STRESS SENSITIVITY


**Abstract.** This article examines the psychology of National Guard soldiers and the psychological requirements for their professional activities. Stressful, and depressive conditions that arise in the professional activities of National Guard servicemen and their overcoming reveal the main psychological features of this area.

**Key words:** Russian Guard serviceman, stress, depression, stress resistance, flexibility, psychotherapy, diagnosis, correction.

## KIRISH

Jadal rivojlanayotgan texnik–informatsion progress asrida inson kuchli zarbalar ta’sirida qoldi va endi ruhiyatni, psixik salomatlikni asrash, psixoemotsional holatlarning inson psixik va tibbiy salomatligiga salbiy ta’sirlarini kamaytirish va buning oldini olish choralarini ishlab chiqish va hayotga keng tatbiq etish masalasini ko’ndalang qo’ymoqda. Inson hayotida yuzga keluvchi psixoemotsional holatlar ichida harbiy xizmatchilarda stress holatlarning o’rni o’zgachadir. Insonning muayyan mehnat muhitiga moslashuvi uning real muomilasida, mehnat faoliyatining aniq ko’rsatkichlarida: mehnat samaradorligida, ijtimoiy axborot va uning amalda ro’yobga chiqarilishida, faollikda namoyon bo’ladi.

Stressning yuzaga kelish sabablari ilmiy nuqtai nazardan turlicha izohlanadi. Jumladan, eng mashhur qarash sifatida G. Selyening stress nazariyasini olish mumkin. Unga ko’ra, dunyodagi jamiki biologik mavjudotlar muhim mexanizm – muvozanatni ta’minlovchi qurilmaga ega. Ichki va tashqi stressorlarning kuchli hamda davomiy ta’sirlari muvozanatning buzilishiga olib keladi. Organizm ushbu vaziyatda o’zining yuqori darajadagi himoya – moslashuv reaksiyasini namoyon qiladi. Qo’zg’alish yordamida organizm tashqi ta’sirga moslashishga urinadi. Aynan shu ta’sir stress holati hisoblanadi. Ta’sir yo’qolmasa, stress kuchayadi, rivojlanadi va organizmda bir qancha o’zgarishlarga olib keladi. Xavotirlikning turg’unligi hamda davomiyligi inson xatti-harakatida quyidagi holatlarni keltirib chiqaradi:



Bunday fiziologik buzilishlarning davomiyligi insonda stressni paydo qiladi. Organizm esa o’zini himoyalashga, ta’sirni so’ndirishga harakat qiladi. Ammo, ma’lumki, organizmning kuchi cheksiz emas va jiddiy stress vaziyati vujudga kelganda, inson buni ko’tara olmaydi. Natijada turli xastaliklar paydo bo’ladi, stress o’ta kuchli bo’lganda, o’lim holati ham kuzatiladi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida stressni ifodalanishi muammosini o’rganish, ularda namoyon bo’lgan xulqning shakllanishida uning qaysi xususiyatlari yetakchilik qilganligi, u yoki bu hattiharakatlarni sodir etishda nimalarga asoslanganligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etib, empirik jihatdan o’z tasdig’ini topishi lozim bo’lgan xulosalar bilan asoslanishi hamda harbiy xizmatchilar o’tmishi va hozirgi mavjudligini tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, uning xulqida kelajakda yuz berishi mumkin bo’lgan o’zgarishlarni ham bashorat qila olishi lozim.

Ushbu jarayonda harbiy xizmatchilar shaxs xususiyatlari, xatti-harakatlarining

motivi, rivojlanishi va asosiysi nima uchun ba'zi harbiy jamoaga, harbiy faoliyat jarayoniga osonlik bilan moslashishi, ba'zilarining esa atrofdagilar (xizmatdoshlar, boshliq va bo'ysinuvchilari) bilan o'zaro muloqotda qiyinchilikka uchrashi masalasini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday, hattoki, normal faoliyat ham zo'riqishni keltirib chiqarishi mumkin va komandir buni nazardan qochirishi kerak emas. Bo'ysinuvchilarga zo'riqishning ta'siri kuchsizroq ta'sir qilishi yoki umuman bo'lmasligi uchun, komandir o'zini psixologik tayyorlashi lozim.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib emotsional holatlarning psixologik, fiziologik, tibbiy ta'sirlarini o'rganish amalga oshirila boshlandi. Jumladan, depressiv holatining psixologik jihatlarini o'rganish ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'ldi. Bu borada V.Yu. Shcherbatyx, A.O.Proxorov, B.G.Ananov, K.K.Plantov, F.Y.Vasilyuk kabi olimlar stressning psixologik jihatlarini tadqiq etganlar.


XXI asrda psixolog va shifokorlarining fikricha, bugungi kunda stressga oid kasalliklarning sonini ko'payishi kuzatilmoqda. Ko'plab insonlar boshidan kechirayotgan doimiy stressga, oilaviy, ishxonadagi muammolar, shuningdek, hayotning iqtisodiy muammolari bilan ham bog'liqligini taxmin qilish mumkin. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bu stress omillari mikroijtimoiy stressorlar asosida rivojlanib kelmoqda.

#### TADQIQOT NATIJALARI

Stressning kichik miqdori foydali ekanligi, bu shaxs faollanishi uchun muhim turtki bo'lishi ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra tasdiqlangan. Bunday stress inson uchun foydali stresslar – eustress deb nomlanadi. Zero, ko'p miqdordagi, ta'siri kuchli, uzoq vaqt davom etuvchi omillar insonda distress holatini yuzaga keltiradi. Distress holati esa insonning psixik va tibbiy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi, shaxs faoliyatida sezilarli o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Xususan, yuzaga kelgan distress holati o'zining bir qancha alomatlari bilan namoyon bo'ladi. Zero, shaxsning intellektual faoliyatida bir qancha o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu holatda: diqqat jamlanishining qiyinlashuvi, e'tiborni muhim narsaga jalb qila olmaslik, fikrlar tarqoqligi va bu esa o'z navbatida qaror qabul qilishning qiyinlashuviga, natijada ish ko'lamiga, shaxs faoliyati unumdorligining keskin pastlashuviga sabab bo'ladi. Bundan tashqari distress holati xotira jarayonlariga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, natijada esda saqlash, saqlangan ma'lumotni qayta esga tushirishning qiyinlashuviga olib keladi.

Jumladan, harbiy xizmatchilarning stress bilan bog'liq muammolarini tahlil etishda ularning ijtimoiy-demografik ma'lumotlari, harbiy xizmat sharoiti, kasbiy faoliyatga munosabati, intizomliligi, harbiy jamoalardagi o'zaro munosabatlar, guruhiy me'yor va qadriyatlariga munosabatlari, shaxsiy baholash va qabul qilish, o'zaro bir-biriga fikr almashish munosabatlarining ularda stressni namoyon bo'lishi darajasiga ta'sirini aniqlash ko'zda tutiladi. Harbiy tadqiqotchilarning fikricha, yosh

ko'rsatkichlari yondashuviga ko'ra armiyada inson hayot siklining asosiy uch davrida harbiy xizmatchilar faoliyat yuritishadi:



### XULOSA

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarida yuzaga keluvchi stressni davolashda ruhiy salomatlikni tiklash usullari juda keng tarqalgan, ularni tanlashda shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olish kerak.

#### **Eng samarali usullarga quyidagilar kiradi:**

Avtotrening - ichki a'zolar funksiyasi, harakat faoliyati buzilganda o'zo'zini ishontirish va o'z-o'zini boshqarish orqali shu holatdan forig' bo'lishga olib keladigan psixoterapiya (ruhiy davolash) usuli. Bu usul orqali shaxs o'z ichki imkoniyatlarini aniqlab olishi, qobiliyatlarini takomillashtirishi, ichki xotirjamlikka erishishi mumkin. Natijada, asosiy pedagogik faoliyatlar normallasadi va faollashadi.

Yengillik-bu odatiy ish faoliyatidan, kasbiy yuklamalardan voz kechib dam olish holati, bir muddat hech qanday faoliyat bilan shug'ullanmaslik.

Mediatsiya-bu intensiv, chuqur aks ettirish, ongni obyektga, g'oyaga va jarayonga singdirish, bitta obyektga diqqatni jalb qilish va diqqatni jalb qiluvchi barcha omillarni yo'q qilish orqali erishiladi. Kasb insonning xarakterini sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin, bu ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Kasbiy deformatsiyaga qarshi kurashda qiyinchilik, qoida tariqasida, xodim tomonidan tan olinmaganligi va uning namoyon bo'lishi boshqa odamlar tomonidan kashf etilishidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to'g'risidagi qonuni. 2020-yil 18-noyabrdagi O'RQ-647-son.
2. Mirziyoyev Sh.M: 2023-yil 13-yanvardagi "Vatan himoyachilari" kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 31 yilligi munosabati bilan, Vatan himoyachilarga bayram tabrigi.
3. G'oziyev E. Psixologiya. T., "O'qituvchi", 1994
4. Fayziyev.Y.M. Umumiy va tibbiy psixologiya.T.: "Ilm-ziyo", 2017.-176



5. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya.T.:Toshkent-2010.
6. Jalolova M.O. "O'smirlik davrida stress holatlari diagnostikasi va korrektsiyasi"Magistrlik dissertatsiyasi, Andijon-2017.
7. G'oziyev.E.G'. Umumiy psixologiya.T.:-2003.
8. Kornilova T. Vvedenie v psixologicheskiy eksperiment. M., 1997.
9. [https:// uz.m.wikipedia.org](https://uz.m.wikipedia.org).
10. [www.expert.psychology.ru](http://www.expert.psychology.ru)

**HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY FAOLIYATDA QONIQQANLIK DARAJASIGA QADRIYATLAR YO'NALGANLIGINING TA'SIRI**

*Musayev Javlonbek Baxriddin o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarining kasbiy faoliyatidan qoniqqanlik darajasiga qo'yiladigan psixologik talablar o'rganiladi. Bu borada milliy qadriyatlar, shaxsning mehnatidan qoniqishiga ta'sir etuvchi shaxsiy sifatlar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Harbiy xizmatchis, kasb, qoniqish, psixologiya, qadriyatlar, milliylik, psixoterapiya, diagnostika, korrektsiya, ta'sir, pedagogik qobiliyat.

**ЦЕННОСТИ УРОВНЯ УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ЭФФЕКТ НАПРАВЛЕНИЯ**

**Абстрактный.** В данной статье рассматриваются психологические требования к уровню удовлетворенности профессиональной деятельностью военнослужащих. В связи с этим национальные ценности носят личный характер, влияя на удовлетворенность трудом человека качества раскрываются

**Ключевые слова:** военная служба, стресс, депрессия, стрессоустойчивость, гибкость, психотерапия, диагностика, коррекция, педагогические навыки.

**VALUES ON THE LEVEL OF SATISFACTION IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF MILITARY SERVANTS EFFECT OF DIRECTION**

**Abstract.** This article examines the psychological requirements for the level of satisfaction with the professional activity of military personnel. In this regard, national values are personal, affecting the satisfaction of a person's work qualities are revealed.

**Key words:** Military serviceman, profession, satisfaction, psychology, values, nationality, psychotherapy, diagnosis, correction, influence, pedagogical skills.

**KIRISH**

Bugungi shiddatkor davrda, dunyoda yuz berayotan tahlikali voqealar zamirida, Yangi O'zbekistonni tinchligini saqlash, osoyishtaligini ta'minlash va millat manfaatlarini ishonchli himoya qilish harbiy xizmatchilarimiz va ularning axloqiy-ruhiy holati va barqaror psixologik xususiyatiga bog'lidir. Yuqori professional, harbiy vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard, yetuk harbiy xizmatchilarni zamon talablariga mos ravishda harbiy xizmatchilarni tayyorlash, mamlakatimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda, Harbiy xizmatchilariga talablarning tizimli qo'yilishi,

faoliyatlarida nizoli va ziddiyatli vaziyatlarning mavjudligi albatta ularning ruhiyatiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Harbiy xizmatchilarning kundalik va ekstremal vaziyatlarda qaror qabul qilishi va o'zini idora qilishi, tobora shiddatli tus olayotgan axborot xurujining ko'pligi, ijtimoiy muammolar hamda harbiy xizmat yuklamasining ko'payishi natijasida ruhiy zo'riqish holatlari natijasida harbiy xizmatchilarning kasbidan qay darajada qoniqqanlik darajasini aniqlash dolzarb masalalardan biridir..

Harbiy xizmatchilar uchun psixologik bilimlarni o'rganilishi harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi nafaqat tashqi olamda ro'y berayotgan ob'yektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlarga ega bo'lish, balki o'z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda, harbiy xizmat faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo'lish, o'ziga va o'zgalarga ta'sir etishning usul va vositalarini bilish hamda ulardan foydalanishni nazarda tutadi.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Harbiy xizmatchilarning kasbiy xususiyatlarini shakllantirish, pedagogik qobiliyatini rivojlantirish, axborot texnologiyalarni qo'llaydigan-zamonaviy kadrlar tayyorlash jarayonida eng muhim vazifalardan biridir. Bo'lajak kadrlarni kasbiy xususiyatlarini shakllantirishda innovatsion ilmiy yutuqlarni, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalarning istiqbolda rivojlanishini hisobga oluvchi dasturlarini ishlab chiqarish va joriy etish asosiy vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Shu bois bugungi ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin.

Zero, yuqori sur'atlar bilan o'sib borayotgan jahon hamjamiyatiga integratsiyalashishga interfaol pedagogik axborot texnologiyalarini joriy etish orqali erishiladi. Harbiy xizmatchilari kasbiy faoliyatini samarali olib borishi ko'p jixatdan uning kasbiy tanlovidan qoniqqanligi bilan bog'liq. Jumladan, harbiy xizmatdan qonniqanligi bilan ham belgilanadi. Kishining mehnatdan qoniqishiga ta'sir etuvchi shaxsiy sifatlar qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin.



Yoshning ulg'ayib borishi bilan kishida mehnatdan qoniqish xissi rivojlana boshlaydi




Ish xaqining ortib borishi, tegishlicha rag'batlar va qo'llab quvvatlanish kasbga nisbatan mehrni shakllantirishga xizmat qila boshlaydi



Jamoada adolatlilik tamoyiliga amal qilinganligi, barchaga mexnatning to'g'ri taqsimlanganligi kasbiy tanlovdan qoniqqanlikni shakllantiradi



Harbiy mahoratni egallash jarayonidagi kognitiv qobiliyatlar - mehnat faoliyatining intellekt darajasiga mos kelishiga va bu o'z-o'zidan kasbiy qoniqishga olib keladi



Kishining sog'lomligi va kayfiyatning ko'tarinki bo'lishi harbiy faoliyatda yuqori natijalarni kafolatlaydi


### TADQIQOT NATIJALARI

Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatda qoniqqanlik darajasiga qadriyatlar yo'nalganligi deganda biz narsa va voqealar, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha hamda Milliy-ma'naviy qadriyatlar – “milliylik” “ma'naviyat” va “qadriyat” tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy xodisalarni o'z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sahasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishiga e'tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy-ruhiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xattiharakatlarda ham ma'lum ijobiy tafovutlar uchraydi. Bunga o'xshash rangbaranglik nafaqat boyligimiz, balki taraqqiyotimiz sur'atini tezlashtiruvchi omil sifatida ko'rishimiz mumkin.

Harbiy jamoalarda psixologik muhitning ijobiyligi talim-tarbiya sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim komponentlardan biri ekanligi nazariy va amaliy jihatdan inkor etib bo'lmaydigan faktidir. Jamoada ijobiy psixologik muhit mavjud bo'lsa, nafaqat pedagogik majburiyatlar, balki har qanday mehnat jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalar sifatli bajarilishiga zamin hozirlanadi. Masalaning yana bir muhim tomoni ham borki, bu ham bo'lsa, harbiy jamoa a'zolarining o'z kasbidan qoniqqanligidir. Chunki, jamoada ijobiy muhit bo'lishi uchun, jamoa a'zolari o'zidan, ayniqsa, o'z kasbidan qoniqqan bo'lishlari zarur.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Kasbdan qoniqqanlik, ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimning jiddiy tarkibiy qismi bo'lib, guruhda ijobiy psixologik muhitni shakllantirish va amalga oshirish uchun muhimasos va shu bilan birga natijadir. Faoliyat samaradorligiga kelsak, shaxs va guruhning ijtimoiy faolligining ushbu asosiy parametrini adekvat baholash uchun kasbdan qoniqqanlik kabi sub'ektiv omilni hisobga olish zaruriy shartdir. F.Gersberg nazariyasini amaliyotga tatbiq etish jarayonida psixologlar J.Xekman va J.Oldxem beshta asosiy omilni aniqladilar, ularning nuqtai-nazari bo'yicha, tashkilot xodimlari tomonidan ishni mazmunli deb qabul qilish uchun zarur bo'lgan faktorlar kerak. Bularga quyidagilar kiradi:





**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi qonuni. 2020-yil 18-noyabrdagi O‘RQ-647-son.
2. Ядов В.А. Стратегия социологического исследования. Описание, объяснения, понимание социальной реальности. М.: «Добросвет» 2011.-.
3. G‘oziyev E. Psixologiya. T., “O‘qituvchi”, 1994
4. Маклаков А.Г. Оценка уровня развития адаптационных способностей личности. // Практикум по психологии менеджмента и профессиональной деятельности. Под ред. Г.С. Никифорова, М.А. Дмитриевой, В.М. Снеткова.-СПб. : Речь, 2007. - с. 127-146.
5. Организационная психология: конспект лекций /кН. подг. С.В. Кошелевой. – М.: АСТ; СПб.: Сова, 2005. С. 67.
6. Рогов, Е.И. Настольная книга практического психолога : Учебное пособие– М.: Издательство ВЛАДОС-ПРЕСС, 2012. – С. 22
7. Галдиева, М. Д. (2022). Ўқувчилар миллий тарбиясига таъсир этувчи омилларни ўрганиш. Современное образование (Узбекистан), (10 (119)), 57-
8. Saodat, T., & Saburovna, S. M. (2023). Bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy mobilligini shakllantirish. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 7, 92-95.
9. <https://uz.m.wikipedia.org>.
10. [www.expert.psychology.ru](http://www.expert.psychology.ru)

## SURXON VOHASIDA AN'ANAVIY OVCHILIK XO'JALIGI

TerDU tadqiqotchisi - *Nurali Safarov*

## ANNOTATSIYA

Ovchilik sohasi insoniyatning ayni bir vaqtlarda kun kechirish va oziqlanish uchun lozim bo'lgan eng birinchi xo'jalik faoliyat turiga kiradi. Hali odamzod aqlan yerga ishlov berish, chorvani ko'paytirish kabi sohalarni bilmagan davrda ular to'g'ridan to'g'ri tirik jonzotlarni toshlar, tayoqlar yordamida ov qilib qorin to'yg'izishganlar. Shunday ekan ushbu sohani va uning turlarini an'anaviy tarzda o'rganish bugungi kun etnograflari oldidagi vazifalardan biri deb hisoblaymiz.

**Kalit so'zlar:** ovchilik xo'jaligi, ovchi itlar, ovchi qushlar, dasht ovchilari, ov mavsumlari.

**Ov qilish, shikor** — yovvoyi hayvon va parrandani ovlash; odamning hayot kechirish jarayonidagi qad. mehnat faoliyatlaridan biri. Odamlar dastlab guruh bo'lib, keyin yakka holda ov qilishgan. Kadimda tosh, nayza, keyinroq pichoq, to'r va boshqalardan ov quroli sifatida foydalanilgan. Kamon kashf etilishi ovchilikda katta ahamiyat kasb etgan. Osiyodagi ko'chmanchilar ot minib, iskovuch it va qush yordamida ov qilgan. Hozir ko'proq miltiq, qopqon va to'r, it bilan ov qilinadi.

